

Ilmiy ishlanmalar ko'rgazmasi: fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi

Navoiy shahrida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlarining ishlanmalari ko'rgazmasi hamda "Fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi - rivojlanish va taraqqiyot garovi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.





Ushbu ko'rgazma va xalqaro konferensiyani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad - mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan, qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati, tog'-konchilik, farmatsevtika sohalarini rivojlantirishdagi salmoqli ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda yangi

texnologiyalarni tadbiq etish, mavjudlarini takomillashtirish.

Ko'rgazmada Fanlar akademiyasining 20 ga yaqin ilmiy tashkilotlari olimlarining 100 ga yaqin ishlanmalari namoyish etildi.



Shuningdek, ko'zrgazmada Navoiy viloyatida joylashgan yirik sanoat korxonalari hamda qishloq xo'jaligi klasterlari vakillari va fermerlar, jami 200ga yaqin ishtirokchilar qatnashdi.

Bundan tashqari, xalqaro konferensiyada 10 dan ortiq xorijiy davlatlar, jumladan, Bolgariya, Latviya, Belarus, Rossiya, Xitoy, Germaniya, Belgiya davlatlari hamda Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari ilmiy-tekshirish institutlari, ilmiy markazlari olimlari onlayn va oflayn ishtirok etdi.

Mazkur ko'rgazma va xalqaro konferensiya olimlar tomonidan yaratilayotgan ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish, so'nggi ilmiy ishlar natijalari bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash imkonini beradi.